

“Xusrav va Farhod obrazlari tarixi va badiiyati”

SamDU II bosqich magistranti: Bo`ronov I

Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. S.Tohirov

Hozirgi davrda o'tmish adabiyotini qayta o'rganish harakati kuchaymoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtboshimizning adabiyotga ko'rsatgan yuksak e'tibori tufayli mumtoz asarlarimizdagi oldinlari siyosiy jihatlari tufayli o'rganilmagan “hamd” va “nat” qismlari endilikda o'rganilmoqda.

Sharq adabiyotida qo'llangan Xusrav va Farhod obrazlari juda qadimiy. Sosoniylar sulolasining oxirgi yirik hukmdorlaridan biri bo'lgan Xusrav II Parviz va uning mashuqasi Shirin haqidagi rivoyatlar juda qadimdan xalq og'zaki ijodida, solnoma va tarixiy asarlarda, ayrim asarlar tarkibidagi kichik hikoyalarda keng tarqalib keldi. Shundan ko'rinadiki Xusrav tarixiy obrazdir. Sharq adabiyotida Farhod qissasi uzoq yo'l bosib o'tdi. Farhod “dastlabki vaqtlarda tabiatning sirli kuchlarini ifodalab keyinchalik ijtimoiy xususiyat kasb etgan va tarixiy kuchlarning nomoyodasiga aylangan fantastik obrazlar¹” singari murakkab evolutsiyani boshdan kechirdi. “Farhod va Shirin” dostonining o'ziga xos fazilatlari XV asr va undan keyin yaratilgan tarix kitoblari va tazkiralarda haqli ravishda yuqori baholanadi. Xusrav va Farhod obrazlari Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” Orif Ardabiliyning “Farhodnoma” Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” kabi asarlarida uchratishimiz mumkin.

“Farhod va Shirin” uzoq tarixga ega bo'lgan Xalqimizning ma'naviy hayoti turmushi urf-odatlariga to'g'risida xabar beradi. Farhod obrazi xalq og'zaki ijodidagi qo'shiq va rivoyatlarda ham uchraydi. G. Aliyev Farhod haqidagi afsonalarning “Xusrav va Shirin” qissasiga kelib qo'shilmasdan ilgari mustaqil ravishda yashab kelganligini qayd etadi va uni Xusrav va Shirin haqidagi dostonga asos bo'lgan tarixiy voqealardan ancha keyin, ya'ni VI asrdan keyin yaratilgan folklore qahramoni deyishga moyillik ko'rsatadi. Prof.I.Bragenskiy “Shohnoma” unga yaqin turgan bir qancha epik asarlar asosida afsonaviy sak qahramonlarining

¹ Erkinov Sodir. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili—T: Fan, 1979. 5-bet.

ro'yxatini tuzganda Farhod ismli qahramonni ham eslaydi. Muallufning xabar berishicha, Farhod Zavoraning o'g'li, Zolning nabirasi bo'lgan. Afsuski bu haqda to'liq ma'lumot saqlanmagan. "Shohnoma"da Afrosiyobning lashkarboshilari haqida ham so'z borganda ham uning Farhod ismli jangovor sipohsalori bor edi deb eslanadi. Akademik V. Bartoldning "Mo'g'ullargacha bo'lgan Turkistondagi xristianlik haqida" deb nomlangan asarida IV asrda Suriyada yashagan istedodli yozuvchi Farhod haqida ma'lumot bor. Sharq adabiyotida Farhod obrazi va u bilan bog'liq bo'lgan qissaning tug'ilishi va taraqqiyoti o'z tarixiga ega. Farhod obrazining keng tarqalishiga sabablardan biri mehnatkash xalqqa xos juda ko'p fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Farhod ulug'insoniy muhabbat mehnat va ijodga ilhomlantirgan faol inson sifatida alohida ajralib turadi. Mehnat mavzuyi Sharq adabiyotida chuqur ildizga ega, buni "Avesto"da ham ko'rishimiz mumkin. Inson madaniyatining muhim belgilaridan biri – mehnat bilan bog'langan Farhod kul'ti O'rta Osiyoda, Ozarbayjon, Eron, Turkiyada ham tarqalgan edi. Farhod nomi bilan atalgani holda afsonaga aylanib ketgan O'zbekistonning Bekobod rayonida joylashgan Farhod tog', qadimgi Xorazmda bunyod etilgan XII asrga oid Devqal'a, Qoshg'aragi Farhod qurgan Ming uy va boshqa shu kabi geografik nomlar va inshootlar bevosita Farhod kul'ti bilan bog'lanadi.

Rus olimi G.Yu.Aliyevning ma'lumot berishicha adabiyotshunoslikda ushbu mavzu yuzasidan oltmishdan ortiq asar aniqlangan². Farhod hikoyatining "Xurav va Shirin"ga kelib qo'silgan davri ilmiy adabiyotlarda X asr deb ko'rsatiladi. Farhod bilan Shirin munosabatiga oid bir lavhaning X asr tarixchisi Muhammad Balmaiyning "Tarixi Tabariy" asarida uchratamiz. U yerda "Xusrav va Shirin" haqidagi qadimgi afsonalarda farqli ravishda uchinchi qahramon—Farhodning Shiringa bog'lanib qolganlii hikoya qilinadi. Farhod qissalarida muhabbat mavzuyining mehnat mavzuyi bilan bir utun holda ifodalanishi asarning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Rivoyatlarda Farhod afsonaviy kuchlardan ham yuqori qo'yiladi. Shirin obrazi ham voqealarni yo'naltiruvchi kuch sifatida alohida o'ringa

² Алиев Г.Ю. Легенда о Хусраве и Ширин в литературах народов Востока—М.1960.стр-163.

ega. U mehnat jarayonida qatnashmasa ham u mehnatni yengillashirishni orzu qiladi.

O'rta asr Sharq adabiyotida xamsachilik an'anasining paydo bo'lishi Farhod obrazining kelajagini belgilab, uni umrboqiy qahramonlar qatoriga olib chiqdi. Nizomiy tomonidan "Xusrav va Shirin" dostononing yaratilishi bilan xalq tilida mavjud afsonalarning eng yaxshi an'alarini o'zida jamlagan Farhod obrazi liron-epik asarlarning qahramoniga aylandi. Mashhur hind shoiri Amir Xusra Dehlaviyning "Shirin va Xusrav" dostoni yaratilgandan keyin esa, ushbu mavzuda doston yozish Sharq adabiyotida eng boy an'anaga aylandi. XIV-XVI asrlarda Eron, Markaziy Osiyo, Ozarboyjon turk-uyg'ur, Hind xalqlari adabiyotida birin-кетин "Xusrav va Shirin", "Farhod va Shirin", "Farhodnoma" kabi nomlar bilan dostonlar maydonga kela boshladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, "Farhod va Shirin" dostoni yaratilgandan keyin ushbu mavzuda ijod qilish ikki yo'nalishda davom ettirildi. Ba'zi dostonlarda Xusravni asosiy qahramon qilib olinsa ayrim dostonlarda Farhodni asar markaziga olib chiqish paydo bo'ldi.

Xusrav, Shirin va Farhod obrazlari ishtirok etgan asarlarning eng yuqori cho'qqisi ya'ni kulminatsiyasi bu, albatta, "Xusrav va Farhod" munozarasidir. Nizomiy yaratgan munozara 52 misradan tashkil topgan. Qutbning munozarasi 42 misradan iborat. Alisher Navoiyning ijodida bu munozara 50 misradan iborat. "Farhod va Shirin" dostonining markazida komil inson Farhod turadi. Dostonda Farhod xarakteri bir necha planda yoritiladi. U dastlab shahzoda, lekin eng oddiy kishilarga xos xislatlar egasi; tabiat maftuni, otashin muhabbat egasi. Nizomiy va Jomiy asarlarida asosiy e'tibor Xusravga berilsa ham Farhod ideal inson sifatida tasvirlanadi, chunki o'sha davrd uchun mehnatkash xalqqa ko'maklashuvchi mehnatkash siymolar kerak edi. Orif Ardabiliyning "Farhodnoma" asarida Xusravning ijobiy xislatlaridan mo'ra ko'proq salbiy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Umuman olganda Farhod obrazi ko'z oldimizda ideal inson sifatida gavdalanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Erkinov Sodir. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili—T: Fan, 1979. 5-bet.
2. Алиев Г.Ю Легенда о Хусраве и Ширин в литературах народов Востока—М.1960.стр-163.